

HURMAT - XAVFSIZLIK VA HAMKORLIK KALITI!



Hurmatli talabalar! Sizlarni Rossiya universitetlari talabalari sifatida ko'rishdan mamnunmiz. Ta'limingiz qulay muhitda o'tishi uchun ko'p millatli davlat sifatida Rossiya haqidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqishni taklif etamiz!

Rossiya 190 dan ortiq xalqlar yashaydigan ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatdir!

Rossiya - bu federatsiya, u 89 ta subyektdan (respublikalar, o'lkalar, viloyatlar va okruglardan) iborat bo'lib, ularda har bir xalqning o'z hokimiyat organlari, an'analari va milliy tillari mavjud, ammo ularning barchasi federal markazga bo'ysunadi va millatlararo muloqotning umumiy tili - rus tiliga ega.

Ruslar eng ko'p sonli va davlatni tashkil etuvchi xalqdir, ammo Rossiyadagi barcha xalqlar teng huquqqa ega.

Asosiy dinlari: xristianlik (pravoslavlik), islom, buddizm, iudaizm va boshqa an'anaviy dinlar.

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi mamlakatning asosiy qonunidir. Unda hokimiyat organlari ishlaydigan barcha qoidalar, qonunlar, odamlarning huquq va majburiyatlari bayon etilgan.

Nima uchun boshqa madaniyat va dinlarni hurmat qilish muhim?

- Rossiyada 190 dan ortiq xalq yashaydi. Ularning barchasi xilma-xil va o'ziga xosdir. Millatlararo kelishmovchiliklar asosida nizolarning oldini olish uchun quyidagi jihatlarni e'tiborga olish muhim:
- Bir-birini hurmat qilish xavfsiz muhit yaratadi - kamsitish va ksenofobiya xavfi kamayadi.
- Boshqalarning urf-odatlarini yoki dinlarini haqorat qilish mamlakatdan chiqarib yuborishgacha bo'lgan jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.
- Mahalliy an'analar va urf-odatlarini bilish va hurmat qilish yangi muhitga osonroq moslashishga yordam beradi.

Hurmatni qanday ko'rsatish mumkin?

- O'qiyotgan hududingizning madaniyati va urf-odatlarini o'rganing.
- Din, an'analar yoki urf-odatlari haqida haqoratli so'zlarni aytishdan saqlaning.
- U yoki bu madaniyatga nisbatan stereotiplarni yaratmaslikka harakat qiling: hamma odamlar har xil.



Diskriminatsiyaga duch kelganda nima qilish kerak?

Agar sizni millatingiz, diningiz yoki tilingiz tufayli haqorat qilishsa, tahdid qilishsa yoki kamsitishsa yoki bunga guvoh bo'lsangiz:

- Xotirjamlikni saqlang - tajovuzkorlik bilan javob bermang, bu vaziyatni yomonlashtirishi mumkin.
- Dalillarni to'plang (yozuvlar, fotosuratlar, videolar, skrinshotlar yoki guvohlarning ko'rsatmalari).
- Yordam uchun oliy o'quv yurtingiz dekanatiga (kurator yoki universitet ma'muriyatiga) murojaat qiling.

Rossiya Federatsiyasida nafrat uyg'otish, odamlarni milliy, irqiy, diniy yoki boshqa belgilari bo'yicha kamsitishni taqiqlovchi qat'iy qonunlar amal qiladi.

Yuridik javobgarlik


Rossiyada dushmanlikni qo'zg'atish uchun Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining (RFJk) va Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi kodeksining (RFMjtk) bir qator moddalariga ko'ra jazo belgilangan:

RF JK 148-moddasi - Dindorlarning his-tuyg'ularini haqorat qilish.

- **Nima taqiqlangan:** Odamlarning diniy e'tiqodini omma oldida haqorat qilish, diniy obyektlarga zarar yetkazish.
- **Jazo:** jarima (500 ming rublgacha), majburiy mehnat, ozodlikdan mahrum qilish (3 yilgacha).

RF JK 280-moddasi - Ekstremizmga ommaviy chaqiriqlar.

- **Nima taqiqlangan:** Terrorizmni oqlash, Rossiya chegaralarini zo'ravonlik bilan o'zgartirishga chaqirish, odamlarning kelib chiqishi, e'tiqodi yoki boshqa belgilari tufayli zo'ravonlikka yoki huquqlarini buzishga ochiqdan-ochiq da'vat qilish (hatto internetda (ijtimoiy tarmoqlar, chatlar) bunday harakatlar uchun jazolanishi mumkin).
- **Jazo:** jarima (300 ming rublgacha), majburiy mehnat, ozodlikni cheklash (5 yilgacha).



Yuridik javobgarlik

RF JK 282-moddasi - Nafrat yoki adovat qo'zg'atish, inson qadr-qimmatini kamsitish.

- **Nima taqiqlangan:** Odamlarni millati, dini, irqi va boshqa sabablarga ko'ra (hatto internetda (ijtimoiy tarmoqlar, chatlar) ham) haqorat qilish yoki zo'ravonlikka chaqirish mumkin emas.
- **Jazo:** jarima (500 ming rublgacha), majburiy mehnat, ozodlikdan mahrum qilish (5 yilgacha).

RF JK 282.1-moddasi - Ekstremistik hamjamiyatni tashkil etish.

- **Nima taqiqlangan:** Boshqa xalqlar yoki dinlarga nafratni targ'ib qiluvchi guruh tuzish.
- **Jazo:** 10-yilgacha qamoq jazosi.

RF JK 282.2-moddasi - Ekstremistik tashkilotda ishtirok etish.

- **Nima taqiqlangan:** Nafrat uyg'otuvchi guruhga a'zo bo'lish yoki uni qo'llab-quvvatlash.
- **Jazo:** 6 yilgacha qamoq jazosi.

RF MJtKning 20.29-moddasi - Ekstremistik materiallarni tarqatish.

- **Nima taqiqlangan:** Taqiqlangan materiallarni yuborish, nashr etish yoki saqlash.
- **Jazo:** jarima (3 ming rublgacha), ma'muriy qamoq.

RF MJtKning 20.3.1 -moddasi - Natsizmni targ'ib qilish, taqiqlangan ramzlarni namoyish etish.

- **Nima taqiqlangan:** Natsistlarning svastikalari, imo-ishoralari yoki shiorlarini ko'rsatish
- **Jazo:** jarima (10 ming rubldan 20 ming rublgacha) yoki 15 sutkagacha qamoq.

Rossiyada millatlararo va dinlararo nizolarni qo'zg'atish va ularda ishtirok etish qattiq jazolanadi.

Xushmuomala bo'l va senga hurmat bilan munosabatda bo'lishadi!

